

O,,ZBEKISTON DAVLAT SAN"AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O,,ZBEKISTON DAVLAT SAN"AT VA MADANIYAT INSTITUTI

NAZAROVA INOYATXON BAXTIYORXO,,JA QIZI

ESTRADA AKTYORINING NUTQ MAHORATINI OSHIRISHDAGI
MUAMMO VA YECHIMLAR

17.00.01 – Teatr san"ati

SAN"ATSHUNOSLIK FANLARI BO,,YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation

Nazarova Inoyatxon Baxtiyorxo,ja qizi

Estrada aktyorining nutq mahoratini oshirishdagi muammo va yechimlar 3

Назарова Иноятхон Бахтиёрхужа кизи

Проблемы и решения в совершенствовании речевого мастерства артиста эстрады 21

Nazarova Inoyatkxon Bakhtiyorhuja qizi

Problems and solutions in improving the speaking skills of a variety actor 41

Eʼlon qilingan ishlar roʻyxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

NAZAROVA INOYATXON BAXTIYORXO,,JA QIZI

ESTRADA AKTYORINING NUTQ MAHORATINI OSHIRISHDAGI
MUAMMO VA YECHIMLAR

17.00.01 – Teatr san'ati

SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI BO,,YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi B2021.1.PhD/San132. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.dsmi.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalikulova Go'zal Erkinovna
san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Ahmetjanova Muqaddas Vahobovna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Abdurasulov Shoxrux Abdinaimovich
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 15-iyul soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127 "A" uy. Tel: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (47 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127 "A" uy. Tel: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 30-iyun kunda tarqatildi.

(2026-yil 30-iyundagi № 14-raqamli reyestr bayonnomasi)



M.T.To'laxo'jayeva

ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

J.A.Mamatqosimov

ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), professor

A.O.Umarov

ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon estrada teatr san'atida satirik abstraktsiya, parodiya, burlesk (Burlesque) kabi yo'nalishlar kontekstida estrada aktyorining nutq mahoratidagi spetsifik ijroning badiiyligi ortib bormoqda. Tomoshabinga emotsional va estetik ta'sir o'tkazish maqsadida yaratilayotgan nomerlar badiiy yaxlitlik kasb etishida dramaturgiya, rejissura hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish jarayonida, aktyor mahoratining o'rni va o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'lmoqda. Jahon estrada san'atida turli uslub va shakllar, show (show), battle (battle), sketch (sketch), musical (myuzikl), stand-up (stendap) kabi tomoshalar estrada aktyorini kreativlik xususiyatlarini ochib berayotgan bir paytda, o'zbek estrada aktyorining nutq mahorati, kechinma san'ati hamda an'anaviy tomosha san'ati talablari bilan uyg'unlashgan ijrochilikni o'zlashtirib borayotgani dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon teatrshunosligida estrada aktyorining xalq tomosha san'ati va zamonaviy sahna san'ati ta'sirida yuzaga kelgan turli g'oyaviy-tematik, obrazda monolog ijro uslublari, nutqiy xarakterlar, ijrodagi mazmun va shakl, talqin hamda ularning ijro mahorati kabi jihatlari ilmiy tadqiqotlarda o'rganilmoqda. Ushbu jarayonda estrada san'atining boshqa san'at turlari bilan aloqalari yanada sintetiklashib borgani sayin, aktyorning nutq mahoratiga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Zamonaviy estrada aktyorining nutq mahorati, matn ustida ishlashdagi o'ziga xoslik, badiiy obrazlar talqinida talaffuzdagi transformatsion o'zgarishlar, kommunikativ texnologiyalar kabi o'ta muhim masalalarni tadqiq etish zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbek estrada san'ati jahon tajribalarini qo'llabgina qolmay, an'anaviy teatr unsurlaridan foydalanib, "ustoz-shogird" an'alarini davom ettirgan holda rivojlanmoqda. "Askiya va qiziqchilik ijrochiligi yo'nalishida "ustoz-shogird" an'alarini rivojlantirish, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash, ularning ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash, o'zbek xalq og'zaki ijodining askiya va qiziqchilik san'atini saqlash va targ'ib etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, bu borada, ijodkorlar, folklorshunos olimlar, o'qituvchi va mutaxassislarning ijodiy va ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash"¹ kabi vazifalar o'zining amaliy natijasini ko'rsatmoqda. Aktyor-qiziqchilar ijrosidagi kulki-hikoya va badiiy asarlar nutqiy mahoratini sayqallashuviga hamda globallashuv jarayonida milliy estrada san'atining o'ziga xosligini to'laqonli saqlab qolish imkonini beruvchi, estrada aktyorining nutq mahoratini shakllantiruvchi tadqiqot ishlari ustuvorlik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O'RQ-668-son "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2023-yil 11-iyuldagi PQ-222-son "Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida",

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-iyuldagi PQ-222-son "Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.07.2023-y., 07/23/222/0467-son.

2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son –Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy oʻrganish va targʻib qilishni rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”, 2024-yil 11-noyabrda PQ-399-son –Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlarga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. –Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishi boʻyicha bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Jahon teatrshunoslik ilmda Jeannine Schwarz (Germaniya), Danielle Jeanine, Pam Wells (Kanada), Carolina Silveira (Shotlandiya) kabi tadqiqotchilarning izlanishlarida estrada aktyorining ijro mahorati hamda nutqi asosan standap chiqishlar misolida oʻrganilganligi yuzasidan kelib chiqqan xulosalari dissertatsiya ishining tahliliy qismida namuna sifatida xizmat qildi².

MDH mamlakatlari tadqiqotchilaridan K.Stanislavskiy, V.Nemirovich-Danchenko, M.Knebel, A.Petrova, I.Sharoyev, S.Klitin kabilarning ilmiy-metodik adabiyotlarida aktyorlikka doir metodologik masalalar yoritilgan³. Shuningdek I.Bogdanov, M.Smirnova, Y.Kollegova, D.Moisenkolarning estrada aktyorlarining nutqiy xarakter gʻoyaviy-tematik, maʼnaviy-estetik ifoda etishga qaratilgan izlanishlari dissertatsiyaga tahliliy yondashuvda muhim ahamiyatga ega boʻldi⁴.

Sharq klassik adabiyotlari, xususan –Qobusnoma”, –Futuvvatnomai sultoniylar yohud javonmardlik tariqati”, –Mahbub-ul qulub” pandnoma asarlarda⁵ bugungi estrada sanʼati unsurlaridan omma oldida soʻzlash, tomosha koʻrsatish, kuylab soz

² Jeannine Schwarz. Linguistic Aspects of Verbal Humor in Stand-up Comedy. – Saarland: Univ'ersitat des Saarlandes, 2010. – 464 p.; Danielle Jeanine. English. Canadian stand-up comedy as a field of cultural production. – Kanada: Simon Fraser University, 2012. – 255 p.; Pam Wells. Invitations to laughter: A microanalysis of televised stand-up comedy performances. – Toronto: University of York, 2007. – 276 p.; Carolina Silveira. Brave art: scottish identity and stand-up comedy. – Scotland: University of the West of Scotland, 2021. – 273 p.

³ Станиславский К.С. Работа актёра над собой. – Москва: Искусство, 1985. – 480 с; Немирович-Данченко В.И. О творчестве актёра. – Москва: Искусство, 1984. – 623 с.; Кнебель М.О. Слова в творчестве актёра. – Москва: Всерос. театр, 1970. – 160 с.; Петрова А.Н. Сценическая речь. – Москва: Искусство, 1981. – 191 с.; Шароев И.Г. Режиссура эстрады и массовых представлений. – Москва: Просвещение. 1986. – 474 с.; Клитин С.С. Эстрада. Проблемы, истории и методики. – Ленинград: Искусство, 1987. – 220 с.

⁴ Богданов И.А. Художественная структура эстрадного номера и основные методологические принципы его создания. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора искусствоведения. – Москва, 2005. – 20 с.; Смирнова М.В. Художественная специфика слова в разговорных жанрах эстрады. Стратегия речевого обучения артистов и режиссёров эстрады. Диссертация на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Санкт-Петербург, 2011. – 140 с.; Коллегова Е.А. Природа внутренней техники актёра эстрады. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Москва, 2012. – 20 с.; Моисенко Д.М. Казахский музыкальный театр: история становления. Диссертация на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Москва, 2015. – 262 с.

⁵ Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Ўқитувчи нашриёти, 1973. – 128 б.; Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб (Қалбларга махбуб ҳикматлар ва ҳикоятлар). Ҳозирги ўзбек тилига таъдил. – Тошкент: Сано-стандарт, 2018. – 200 б.; Хусан Воиз Қошифий. Футувватномаи султони Ҳуд жавонмардлик тариқати. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 1993. – 112 б.

chalish kabi ayrim ma'lumotlarni uchratish mumkin. An'anaviy teatr vakillari bo'lgan qiziq va masxarabozlar san'ati tarixiga oid ayrim masalalar akademik M.Rahmonov, san'atshunoslik fanlari doktori, professor M.Qodirovlarning ilmiy izlanishlari dissertatsiyaning tarixiy-nazariy qismini shakllantirishda asos vazifasini o'tadi⁶. Zamonaviy teatrshunoslik ilmida estrada aktyorining yurtimizdagi ijodiy jarayonlari haqida bir qancha san'atshunos olimlar, B.Shodiyev, S.Qodirova, P.Tashkenbayev, I.Abdurahmonov, O.Sultonov ilmiy tadqiqotlarida tilga olingan⁷. Estrada tomoshalarining turli san'atlar bilan uyg'unligi haqida T.Rashidov⁸ tadqiqotida batafsil to'xtalangan. Milliy teatr san'atida o'zbek sahna nutqini alohida o'rganigan olimlar L.Xo'jayeva, I.Po'latov, K.Umirzoqov, G.Xalikulova ilmiy ishlarida tahlil qildilar⁹. Ilmiy-amaliy izlanishlari mavzuni o'rganish uchun fundamental manba sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari S.Inomxo'jayev, B.Sayfullayev, M.Umarov, M.Yusupova, M.Rashidov kabilarning ilmiy adabiyot va ilmiy to'plamlarda chop etilgan maqolalari ham¹⁰ mazkur dissertatsiya uchun nazariy manba sifatida xizmat qildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Yangi O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish strategiyasi: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy talablar uyg'unligida madaniyat va san'at sohasi mutaxassislarini tayyorlashning nazariy-konseptual asoslari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek estrada san'atida aktyorning nutq mahoratidagi o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

⁶ Раҳмонов М. Ўзбек театр тарихи. – Тошкент: Фан, 1968. – 264 б.; Қодиров М. Ўзбек халқ томоша санъати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – 223 б.

⁷ Шодиев Б.А. Театрлашган майдон томошалари драматургияси ва режиссураси муаммолари (1991-2005). Санъатшунослик фанлари доктори диссертацияси – Тошкент: Санъатшуносликилмий тадқиқот институти, 2007. – 321 б.; Қодирова С.М. XX аср Ўзбек театрида комедия санъати (шаклланиш ва тараққиёт муаммолари). Санъатшунослик фанлари доктори диссертацияси – Тошкент: Санъатшунослик илмий тадқиқот институти, 2003. – 326 б.; Ташкенбаев П.И. Цирковое искусство в Узбекистане во второй половине XXI- начале XX вв. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Ташкент: Институт Искусствознания, 1993. – 20 б.; Абдурахмонов И.Р. Ўзбек халқ ўйинлари ва томошалари (XX аср Ўзбекистоннинг жанубий вилоятлари мисолида). Санъатшунослик бўйича номзодлик диссертацияси. – Тошкент: Санъатшунослик илмий тадқиқот институти, 1997. – 200 б.; Султонов О.Қ. Ўзбекистон телевиденисида кулги санъати (таркиб топиши ва ривожланиши). Санъатшунослик фанлари номзодлик диссертацияси. – Тошкент: Санъатшунослик илмий тадқиқот институти, 2005. – 200 б.

⁸ Рашидов Т.М. Синтез искусств в контексте эстрадного представления. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Ташкент: Институт Искусствознания, 2011. – 20 с.

⁹ Ходжаева Л.А. Работа над орфоэпией в узбекской театральной школе. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Москва, 1958. – 20 с.; Пулатов И.Ш. Проблемы формирования и развития узбекской сценической речи. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Баку, 1969. – 20 с.; Умрзаков К.У. Проблемы сценической речи в узбекской музыкальной драме: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Ташкент: Институт Искусствознания, 1987. – 20 с.; Халикулова Г.Э. Ўзбек тарихий драмаларида сахна нутқи масалалари (1980-90йй.). Санъатшунослик фанлари номзодлик диссертацияси. – Тошкент: Санъатшунослик илмий тадқиқот институти, 2004. – 182 б.

¹⁰ Иномхўжаев С. Бадий ўқиш асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 180 б.; Sayfullayev B., Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. – Toshkent, 2012. – 417 б.; Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 335 б.; Юсупова М. Режиссура эстрады и массовых представлений. – Тошкент: Lesson press, 2020. – 200 с.; Рашидов М. Эволюция эстрадного жанра / "Milliy estrada san'atini rivojlantirishda malakali kadrlar tayyorlashning dolzarb muammolari" to'plami. – Toshkent: Lesson press, 2021. – B. 21-26.;

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek estrada aktyorligi san'atining ilmiy-nazariy va tarixiy asoslarini tadqiq etish;

milliy estrada aktyorligining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o'rganish;

estrada aktyorining yakka ijroda nutqiy mahoratidagi o'ziga xos jihatlarni hamda estrada aktyorlar jamoalarida ijodkorlik sifatlarini aniqlash;

zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish jarayonlarida jahon tajribalarining ahamiyatini tadqiq etish va an'anaviy talqinlarni qo'llagan holda taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida estrada aktyorining nutq mahorati shakllanish va rivojlanishdagi asosiy bosqichlar, an'ana va zamonaviy talqinlar davomiyligi, ijodiy izlanishlar belgilangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek estrada sahnasidagi estrada aktyor-qiziqchilarning sara dasturlaridagi guruhli va yakka chiqishlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda san'atshunoslikka oid tahliliy, tarixiy xronologik, qiyosiy, faktologik, tasnifiy tipologik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

an'anaviy tomosha san'atining kulgi, hikoya, korfarmon, qiziq-masxara, taqlid, muqallid va askiya kabi shakllari estrada aktyorining havaskorlik hamda professionallik bosqichlaridagi ijro spetsifikasini hamda nutq mahoratini rivojlantirishda imitatsiya, badihago'ylik, so'z o'yini kabi ijodiy kompetensiyalar jonli muloqotni ta'minlashda amaliy jihatdan xatti-harakatdan ko'ra taqlid, ovoz va ohangni o'xshatishda hayotiylikni yuzaga keltirishi sababiga ko'ra ustuvor ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan;

yakka ijrodagi repertuarni shakllantirishda kompozitsion muvozanatni tematik yaxlitlik, janr rang-barangligi kontekstida obraz dinamikasini muayyan protitipni tasvirlash orqali performativ intensivlikni ijodiy konseptual yondashuv asosida dramaturgik izchillik va individual uslubiy yo'nalishni obrazning sahnadagi holatiga munosabatni kuchaytirish sahnaviy ta'sirchanlikni ta'minlashga xizmat qilishi asoslangan;

milliy va zamonaviy nutq madaniyati elementlarining o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanilishi va mazmunan bir butunlik kasb etishi ta'sir samaradorligini oshirish, uslubiy muvofiqlikni ta'minlash, emotsional ta'sir doirasini kengaytirish imkoniyatini yaratishi sababli estrada chiqishlarining badiiy yaxlitligini ta'minlashga xizmat qilishi dalillangan;

jamoaviy ijroda o'zaro ijodiy hamkorlik, sahnaviy muloqotning uzviyligi va partnyorlik munosabatlarining muvofiqligiga asoslangan integrativ yondashuv hamda individual ijro elementlarining umumiy dramaturgik konseptsiyaga bo'yundirilishi yagona g'oya asosida qurilganligi sababli ular jamoaviy aktyorlik ansamblining badiiy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy omil ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, shuningdek mazkur institutning Nukus filialida faoliyat olib boradigan "Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi", "Estrada aktyorligi" ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga va o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida estrada san'atini o'rganishda yordam beruvchi

–Sahna nutqi” kabi fanlarga oid o_quv qo_llanmalar yaratishga xizmat qilgani asoslangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tanlangan mavzu asosida muammoning aniq belgilanganligi, mavzuni yoritishda mahalliy va xorijiy tadqiqotlar, ilmiy adabiyotlarga asoslanganligi, sahna nomerlari tahlilida tasmada yozilgan konsert dasturlari audio-video materiallardan foydalanilgani shuningdek dissertatsiya ishida bir qator milliy hamda jahon sahnasidagi taniqli aktyor-qiziqilar nomerlari bilan tanishilganligi, arxiv materiallari to_planganligi va ijodkorlar bilan suhbatlar o_tkazilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va xulosalar o_zbek estrada san‘atiga oid mavjud ilmiy-nazariy ma‘lumotlarni kengaytiradi, san‘atshunoslik, teatrshunoslik, sahna nutqi va aktyorlik mahorati yo_nalishlardagi fanlar bo_yicha nazariy-uslubiy ishlanmalarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O_zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti, shuningdek mazkur institutning Nukus filiali talabalari va mutaxassislari uchun san‘at nazariyasi, rejissyorlik, aktyorlik mahorati va sahna nutqi bo_yicha o_quv kurslar mazmunini boyitishda, darsliklar, o_quv qo_llanmalari, monografiyalar, videodarsliklar tayyorlashda hamda soha malakasini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Estrada aktyorining nutq mahoratini oshirishdagi muammo va yechimlarni tadqiq etishda olingan ilmiy natijalar asosida:

an‘anaviy tomosha san‘atining kulgi, hikoya, korfarmon, qiziq-masxara, taqlid, muqallid va askiya kabi shakllari estrada aktyorining havaskorlik hamda professionallik bosqichlaridagi ijro spetsifikasini hamda nutq mahoratini rivojlantirishda imitatsiya, badihago_ylik, so_z o_yini kabi ijodiy kompetensiyalar jonli muloqotni ta‘minlashda amaliy jihatdan xatti-harakatdan ko_ra taqlid, ovoz va ohangni o_xshatishda hayotiylikni yuzaga keltirishi sababiga ko_ra ustuvor ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan xulosa va takliflardan 2024-yilda O_zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil etilgan tadbirlardagi estrada chiqishlari hamda boshlovchilarning nutq mahoratini oshirishda foydalanilgan (O_zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 12-apreldagi 01-12-18-2081-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Respublika miqyosida o_tkazilgan tadbirlarda estrada aktyorining ijro mahoratini oshirish bo_yicha ustoz-shogird an‘analari yo_lga qo_yilishi orqali yosh estrada aktyorlarining matn bilan ishlashda so_z urg_usi, mantiqiy urg_uni takomillashtirishga erishilgan;

yakka ijrodagi repertuarni shakllantirishda kompozitsion muvozanatni tematik yaxlitlik, janr rang-barangligi kontekstida obraz dinamikasini muayyan protitipni tasvirlash orqali performativ intensivlikni ijodiy konseptual yondashuv asosida dramaturgik izchillik va individual uslubiy yo_nalishni obrazning sahnadagi holatiga munosabatni kuchaytirish sahnaviy ta‘sirchanlikni ta‘minlashga xizmat qilishi asoslangan xulosa va takliflardan –Madaniyat va ma‘rifat telekanalining –Erkin blogger” ko_rsatuvi ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan (O_zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Ma‘rifat ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 16-iyuldagi 15-20/537-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ham zamonaviy, ham milliy

uslublarni birlashtirgan estrada aktyorining yumor orqali jamiyatdagi kamchiliklarni ochib berganligi kontekstida ko_p sonli tomoshabinlarga tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan;

milliy va zamonaviy nutq madaniyati elementlarining o_zaro uyg_unlashgan holda qo_llanilishi va mazmunan bir butunlik kasb etishi ta'sir samaradorligini oshirish, uslubiy muvofiqlikni ta'minlash, emotsional ta'sir doirasini kengaytirish imkoniyatini yaratishi sababli estrada chiqishlarining badiiy yaxlitligini ta'minlashga xizmat qilishi dalillangan xulosa va takliflardan professional teatrlarda faoliyat yurituvchi aktyorlarning nutq mahoratini oshirishda foydalanilgan (O_zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 12-apreldagi 01-12-18-2081-son ma'lumotnomasi). Natijada, estrada aktyorining nutq mahoratida badiihago_ylikni oshirishga erishilgan;

jamoaviy ijroda o_zaro ijodiy hamkorlik, sahnaviy muloqotning uzviyligi va partnyorlik munosabatlarining muvofiqligiga asoslangan integrativ yondashuv hamda individual ijro elementlarining umumiy dramaturgik konsepsiyaga bo_ysundirilishi yagona g_oya asosida qurilganligi sababli ular jamoaviy aktyorlik ansamblining badiiy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy omil ekanligi isbotlangan xulosa va takliflardan –Madaniyat va ma'rifat” telekanalining –Erkin blogger” ko_rsatuvi ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan (O_zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Ma'rifat ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 16-iyuldagi 15-20/537-son ma'lumotnomasi). Natijada, ham yakka, ham jamoaviy ijroda estrada aktyorining dramaturgik izchillik va individual uslubiy yo_nalishni kuchaytirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o_tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo_yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 4 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro_yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o_rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo_nalishlariga mosligi ko_rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo_yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning I bob –**Estrada san'atida aktyorning nutq mahorati: tarixiy-nazariy asoslari**” deb nomlanib ikki paragrafdan iborat. Birinchi paragraf –**Estrada san'atida aktyorning nutq mahoratini ilmiy-nazariy o_rganilishi**” deb nomlangan bo_lib, estrada san'ati tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, o_zbek

milliy estrada aktyorligining shakllanish bosqichlari hamda an'anaviy teatrdan professional estrada sahnasiga o'tish jarayonlari tadqiq etilgan.

Estrada san'atining ildizlari uzoq o'tmishga, Qadimgi Misr va Qadimgi Gretsiyada mavjud bo'lgan san'at turlariga borib taqaladi. Karnavallar hamda maydon tomoshalari vaqtida vujudga kelgan shaharliklar turmush hayoti va urf-odatlarini haqidagi satira, siyosiy mavzulardagi o'tkir hazillar, hukumatga nisbatan tanqidiy munosabat, qo'shiqlar, hazilomuz sahna ko'rinishlari, so'z o'yinlari, masxarabozlar chiqishlari, jonglyorlik, musiqali eksentrika bo'lajak estrada nomerlarining ilk kurtaklari bo'lib xizmat qilgan. Estradaning elementlari skomoroxlar (Rossiya), shpilmanlar (Germaniya), jonglyorlar (Fransiya), frantlar (Polsha), masxarabozlar (Markaziy Osiyo) chiqishlarida namoyon bo'lgan.

Italiyada XVI-XVII asrlarda omma bilan ochiq muloqot asosida komediya dell'arte (niqoblar teatri) vujudga kelgan. Bu turdagi spektakllar odatda kundalik turmushda tez-tez kuzatiladigan voqealar ustiga qurilgan. Intermediya (ko'rinish)ning badii bilan yo'g'rilgani, musiqiy jarangdorligi qo'shiqlar, raqslar, sozli yoki vokal nomerlari yordamida ta'minlangan. Yuqoridagilar estrada nomerining to'g'ridan-to'g'ri manbai vazifasini bajargan.

Fransiyada paydo bo'lgan vareteda —avval bir aktli spektakl namoyish qilingan. Spektakldan so'ng qo'shiq, she'r, raqs, musiqa ijrochisi, akrobat, jonglyor va fokuschilar o'z nomerini ko'rsatgan. Bunday shakldagi tomosha turi — ilk bor teatr spektakli va konsert dasturini birlashtirgan qiziqarli tomoshaga aylandi¹¹. 1881-yil Parijda artistik kabaresi —Sha-nuar" (qora mushuk)da yosh san'atkorlar, aktyorlar, adabiyotchilar yig'ila boshlaydi. Unda aktyorlar jamoat va siyosiy muammolarning o'tkir qirralarini ochib berishgan. Germaniya, Avstriyada bunday kabarelar keng tarqaladi.

XIX asrning o'rtalarida Rossiyaning yirik shaharlarida kabare, restoranlar, kafe, varete, myuzik-xoll, istirohat bog'larda —ochiq sahna san'ati", —ochiq maydon", keyinchalik estrada san'ati deb yuritila boshlangan. Rus estradasida so'zlashuv janri yuzaga kelib, u ikki xil ko'rinishda rivojlandi. Bular —"estrada adabiyoti" va —estrada so'zlashuvi" nomi bilan tarixga kirgan. Estrada adabiyoti(chtet)da badiiy o'qish dvoryanlar ziyofatlari, teatr sahnalarida spektakl o'rtasidagi tanaffusda yoki oxirida 5-15 daqiqa ijro qilingan. Unda rus va jahon adabiyotidan namunalar tinglangan. Bu yo'nalishda A.Y.Zakushnyak ilk bor teatr sahnasidan ajralgan holda —Hikoyalar oqshomlari"ni tashkil qilgan. Vladimir Yaxantov mualliflar asarlarini montaj qilib Lyudvig Van Betxoven, I.S.Bax, D.Shestakovich, F.List, S.Raxmaninov musiqalari ostida ularni o'qigan. Aktyorlarning ijrolari bir yarim ikki soatgacha davom etgan.

O'zbek estrada san'atida so'z janrining alohida o'rni borligi shubhasiz. So'z ustalari xususan qiziqqlarning aktyorlik mahoratiga baho berish, ular faoliyatini ilmiy umumlashtirish borasida bir qator tadqiqotlar bajarilgan. Ilmiy manbalarda qiziqchilik o'zbek an'anaviy tomosha san'atining qadimiy ko'rinishlaridan biri sifatida talqin qilinadi.

Professor M.Qodirov so'z san'ati zargarlari, kulgi ustalari haqida gap ketganda eng avvalo Marg'ilonlik Yusufjon qiziq Shakarjonov ijodini alohida tilga oladi.

¹¹ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. — B.186–187.

Olimning “Yusufjon qiziq” nomli risolasida ustoz san‘atkorning ijodiy qiyofasi haqida to‘xtalar ekan, uning har bir qirrasini alohida tahlil qiladi¹². Olim san‘atshunoslik instituti aspiranturasida 1959-yili bahorida Oxunjon qiziq yordamida san‘atkor bilan tanishib, ijodini har tomonlama jiddiy o‘rganish boshlaydi. Shu kungacha teatrshunoslik ilmida noma‘lum bo‘lgan bir qator ma‘lumotlarni topib, ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etadi.

Keyinchalik mustaqillik davrida tashkil etilgan qiziqchilar guruhлари - o‘zbek estrada teatrlari, xususan so‘z ustalari ijodini o‘rganish borasida ham dastlabki qadamlar tashlangan. O‘zbek teatrshunoslik ilmida mavzuga yaqinroq bo‘lgan ayrim masalalar san‘atshunoslik fanlari nomzodi, qiziq O.Sultonov tomonidan tadqiq etilgan¹³.

Estradaning mohiyatini ilmiy o‘rganish borasida o‘zbek san‘atshunoslik ilmi kesimida ham dastlabki tadqiqotlar olib borilgan. T.M.Rashidov O‘zbekiston san‘atshunoslik ilmida estrada tomoshalarida san‘at sintezi masalalarini tahlil qilgan. Unda estradaning san‘at sifatidagi janrlar tavsifi, ijrochilik ijodiyotida san‘at turlarining o‘zaro to‘qnashuvi, uyg‘unlashuvi va bir-biriga ta‘siri masalalari yoritilgan¹⁴. Bo‘ljak yosh –estrada artistlari o‘z kasbining nazariy asoslari bilan kam qiziqishi va bu boradagi mavjud manbalarni yetarli darajada chuqur o‘rganmasligi ularning ijodlari tobora sayozlashib borayotganligining asosiy sababi sifatida qaraladi. Aksar hollarda ular o‘z sohasiga oid terminlarni ham tushunmasligining sababini ham shu omillardan izlaydi”¹⁵.

Estrada aktyorining nutq mahoratini ilmiy-nazariy o‘rganilishini, mazkur tadqiqotlar estrada yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan aktyorlarning mahoratini o‘rganish, ilmiy va badiiy manbalar orqali ularning yo‘nalishi, maqsad va vazifalarini belgilash borasidagi qarashlarni shartli ravishda bir necha tur va turkumlarga ajratish mumkin. Zamonaviy musiqashunoslik ilmida estrada qo‘shiqchiligi va musiqasining o‘ziga xos jihatlari, turlari va ichki qonuniyatlarini tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlar va ulardan kelib chiqadigan xulosalar; madaniyatshunoslik fani kesimida estrada san‘atini zamonaviy yoshlarning ommaviy madaniyatida o‘ziga xos fenomeni sifatida tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlar natijalari va nazariy qarashlar; yozuvchi va shoirlar tomonidan qiziqchilar ijro etgan hangomalar, latifalar, kulgili hikoyalar matni, ibratli voqealar tafsilotlari jamlangan va ommaviy kitobxon uchun mo‘ljallangan badiiy to‘plamlar; zamonaviy o‘zbek teatrshunoslik fani kesimida estrada aktyorlari va qiziqchilar ijodiy faoliyatiga oid ma‘lumotlarni to‘plab, faktlar bilan atroflicha tahlil qilingan ilmiy monografiyalar, ijodiy portretlar kabilardir.

Bobning ikkinchi bo‘limi **“Milliy estrada aktyorlik san‘atining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari”** deb nomlangan bo‘lib, o‘zbek estrada aktyorlik san‘ati zamonaviy atama bo‘lib, uning asosiy janrlari XX asr davomida turli ko‘rinishlarda shakllanib bordi.

¹² Кодиров М. Юсуфжон кизик. –Тошкент: Фан, 1991. – Б. 97.

¹³ Султонов О. Ўзбекистон телевидениесида кулги санъати. – Тошкент: Фафур Гулом нашриёти, 2005. – Б.140.

¹⁴ Рашидов Т. Синтез искусств в контексте эстрадного представления. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения по специальности 17.00.09 – Теория и история искусства. Ташкент, Санъатшunoslik ilmiy-tadqiqot instituti, 2011. – 20 с.

¹⁵ Рашидов Т. Эстрада хонадаларининг актёрлик тайёргарлигидаги долзарб масалалар // “Театр”. – Тошкент, 2019-йил. 3-сон. – Б.40.

XX asr boshlarida o'zbek estrada aktyorligi san'atining vujudga kelishida Yusufjon qiziq Shakarjonovning alohida o'rnini bor. 1893-yildan Maks Baranskiy, Bogoyevskiy, Jiganov, Ivantsovich, Janjaladze, Yupatov singari Rossiyaning mashhur sirk ustalari Turkistonga kelganida ular bilan hamkorlikda chiqishlar qildi. 1910-yilda u amir Said Olimxon bilan Peterburgga borib, u yerdagi Petrodvores saroyidagi imperator qabulida ishtirok etdi, muzey, teatr tomoshalarida qatnashdi. Shuningdek, aka-uka Anatoliy va Vladimir Durovlar bilan Peterburg sirkida "Shayton", "Sartarosh" nomli sahna ko'rinishini namoyish etdi.¹⁶

Estrada san'ati uning rivojiga hissa qo'shgan aktyorlik maktabi borasida so'z ketganda 1926-yil Muhiddin Qoriyoqubov rahbarligidagi etnografik ansambl tashkil etilishi mazkur yo'nalishni rivojlantirishda muhim rol o'ynaganini ta'kidlash lozim. M.Qoriyoqubov bir vaqtning o'zida ham rejissyor, ham ijrochi, ham tashkilotchi sifatida faoliyat olib bordi, jamoaga Tamaraxonim, Yusuf qiziq Shakarjonov, 1927-yili usta Olim Komilov kelib qo'shilishi natijasida ijodiy ishlar rivojlanib, bu borada yangi davr boshlanadi.

1920-yillarning oxiri – 1930-yillar boshlarida sahnalashtirilgan komediyalarda xalq og'zaki dramasi an'alaridan keng foydalanilgan. Taniqli masxarabozlar va qiziqchilar repertuarida bo'lgan mavzular, sajiyalar, qiyofalar, uslublar qo'llanilgan¹⁷. Yevropa uslubidagi o'zbek teatr san'ati rivojlanishi bilan bir qatorda estrada san'ati ham birga takomillashuv jarayonlarini boshidan kechirgan. M.Behbudiyning "Padarkush" fojeasi sahnada bir komediya asari va konsert nomerlari bilan birga ko'rsatilgan. Mazkur tomoshalar g'oyasi tomoshabin uchun yanada tushunarli bo'lishida estrada aktyorining chiqishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida M.Hamidov sehrli so'zining ohangi - jangovar va safarbar etuvchi janr teatr yetib borolmaydigan burchaklarga ham nur kabi kirib borishga qodir edi.

1960-yillarda texnika rivojlanib televideniye rivojida ham aktyorlarga ehtiyoj katta bo'ldi. Ijtimoiy mavzulardagi dramatik telenovellalar jonli efirda televideniye orqali uzatilishidan tashqari, "kulgi" yana o'zini yangicha namoyishi uchun o'ziga xos ijodiy makon topdi. Televideniya kulgi san'ati rivoji Ergash Karimov nomi bilan boshlandi.

1970-yillardan o'zbek kulgi estradasi sahnasida Muhiddin Darveshov nomi yangray boshlaydi. Professor M.Qodirov izlanishlari jarayonida Muhiddin qiziqning ijodini chuqur o'rganib, ijobiy munosabat bildiradi. Ayniqsa, 1970-80 yillar O'zbekistonda yetakchi va bosh qiziqchi sifatida faoliyat ko'rsatganligi, ijodkorning o'ta ziyrak, farosatli, hozirjavob iste'dod egasi sifatidagi fazilatlarini yuqori baholaydi¹⁸.

Estrada sahnasida badiiy so'z ijrochiligi haqida gap ketganda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, taniqli suxandon va boshlovchi O'tkir Siddiqovdir. 1969-70 yildan "Shodlik" ashula va raqs ansamblida faoliyatini boshladi. O'tkir Siddiqov rasmiy, klassik usul qoidalariga amal qilardi. Boshlovchiga zarur xislatlarni barchasi unda mavjud bo'lib, o'z uslubiga bir umr sodiq qoldi.

¹⁶ Umid Bekmuhammad. Qiziqchilar podshosi / "Hurriyat". – Toshkent, 2021-yil, – B.8.

¹⁷ Қоди́рова С. Комедия санъати тарихи. – Тошкент: САНЪАТ, 2008. – Б.16.

¹⁸ Qodirov M. O'zbek teatr tarixi. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2003. – B.213.

1980-yillar boshlarida Rustam Hamroqulov Muhiddin qiziq ortidan ergashib havas bilan estrada sahnasida soʻz orqali tomoshabinlar qarshisiga chiqdi. Teatrshunos olim T.Tursunov shunday yozadi: –Yosh ijodkor, R.Hamroqulov ham teatr faoliyatida faol qatnashib, tengdoshlariga namuna boʻlmoqda”.¹⁹

Milliy estrada aktyorlik sanʼatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari juda murakkab va oʻzgarishlarga boy boʻladi. Bunda ikkita muhim omilni alohida ajratib koʻrsatish mumkin. Birinchidan, milliy estrada aktyorligining shakllanishi jarayonlarida anʼanaviy teatr sanʼati namoyondalari – qiziqarlar, masxarabozlar, muqallidlar, raqqoslar va milliy sirk ustalari merosi asosiy negiz vazifasini oʻtagan.

Ikkinchidan, Oʻzbekistonda zamonaviy estrada chet ellarda urf boʻlgan sanʼat shakl va uslublari mas, jaz, estrada orkestri, myuzikxoll va boshqalarni oʻzlashtirishi bilan boyib bordi va bugungi kungacha yetib keldi.

Dissertatsiyaning II bobi **–Estrada aktyorining yakka hamda jamoaviy ijrosida til va nutq muammolari**” deb nomlanadi. Bobning **“Yakka ijroda nutqning oʻziga xos xususiyatlari**” nomli birinchi boʻlimida yakka ijrochining kulki-hikoya tili undagi fikr, nutqning tempo-ritmi, intonatsiya va aktyor topilmalari kesimida tadqiq etiladi.

Soʻz ustasining oʻziga xosligi uning mantiqiy fikrlashi, oʻzbekcha jummalarni toʻgʻridan toʻgʻri obrazli ifodasi kulgi uygʻotadi. –Oʻzbekning oʻzi qiziq, oʻzidan ham soʻzi qiziq” repertuaridan oʻrin olgan hayotiy shu bilan birga kulguli holatlarga toʻxtalib oʻtsak, masalan.

Hoji qiziq: **–Koʻk**” choy deyilsa, **–sariq**” choy, **–qora**” choy deyilsa **–qizil**” choy damlab kelinadi. Nega shunaqa?

- Man imtixonidan yiqildim deydi, baland ekanmi? Tushib kettimi? AAA.Buf.

- Man institutga kirolmadim, deydi. Quplab qoʻygan ekanmi? Kirib ketavur, kim seni ushlab turibti?

- Gapni qarang, palonchini xotini ogʻir oyoq deydi. Taroziida tortib koʻrdingmi?

- Mexmon yotib borarsiz deydi. Yotib qanaqa boradi? (harakat bilan koʻrsatadi)

Ushbu turkumdagi chiqishlar sirtidan oddiy jummalarga oʻxshab koʻrinsa-da, ammo tomoshabin qiziqning har bir gapiga kuladi. Chunki H.Tojiboyev odamlar orasidagi hayotiy, xalqchil gaplar bilan kuldiradi. Ularni ijro qilish vaqtida aktyorlik mahoratini ishga soladi, baʼzi oʻrinda gapirmasdan, shunchaki pauza, imo-ishora orqali ham kuldiradi.

O.Asomovning **–Hasan kayfiy**”²⁰ ertakona monologi chuqur mohiyatga ega. Ertak aytib beraman deydi mavzuga oʻziga xos uslubda oʻzbek xalq ogʻzaki ijodidan foydalangan holda *–bir bor ekan bir yoʻq ekan boʻri bakkavul ekan tulki yassavul ekan qargʻa qaqimchi ekan chumchuq chaqimchi ekan shu davlatning podshox bor ekan*”. Bu ertakda xalqning noroziligi, yurtdoshlarining dardini O. Asomov dadillik bilan katta sahnada oshkor etadi. Bu kulki-hikoyada qaysidir maʼnoda xalqining dardiga darmon boʻlishga koʻnglingizni choʻktirmang bu shunchaki ertak, deb xalqqa ertangi porloq kunga ishora qiladi. –Agarda u avvalari koʻproq Raykin, Xazanov, Petrosyan uslubiga taqlid qilgan boʻlsa, endilikda koʻproq oʻzbek qiziqchilarining

¹⁹ Турсунов Т. Коллектив махорат мактаби / –Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. – Тошкент, 1981-йил, 13-ноябр. 33-сон. – Б.6.

²⁰ Koʻgʻu jamoasining 1989-yilgi dasturi YouTube videoplatformasidan

mahorati ularning soʻz oʻyinlarini oʻrganishga, mashhur qiziqchilarimiz Muhiddin Darveshov, Hojiboy Tojiboyevday atrofimizdagi oddiy narsalar, xarakterlardan kulgi chiqarish sanʼatini egallashga intilayotgani sezilib turadi”²¹. Aktyorning –ayol” obrazda monologining, ijro qilishida boshida roʻmol, koʻzoynak kabi detallardan foydalansa, nutqda xalqona ibora, maqol, mataldan foydalanadi.

O.Asomov ijodining oʻziga xosligi uning uchta muhim jihatlarida koʻzga tashlanadi. Bular, kulgi hikoyalarida yolgʻon toʻqima yoʻqligi, gap kelganda ayamasligi, har bir luqmaga munosib javob qaytara olishi, tomoshabinga ijrodagi voqealar rivojini, satiraning oʻziga xosligini yaxshiroq tushunishi va kerakli xulosa chiqarishi uchun ayrim izohlari, hikoyadagi qahramonni koʻz oldimizda ovoz orqali gavdalantirishi, badiiy soʻz qudratiga katta ahamiyat qaratish orqali ijroda badiiy mukammallikka erisha oladi.

–Ijrochining shaxsiyati ijro qilinayotgan matn negizida yuzaga chiqmay qolmaydi. Matinni talqin qilishda uning shaxsiyati, muhim rol oʻynaydi”. Shaxsiy fazilatlar ochiq muloqotdagina namoyon boʻladi. Buni rus sanʼatshunos olim Yuriy Dimitriyev –ochiqlik mahorati” deb nomlagan²². Demak estradada ijrochi matnga shaxsiy munosabatini bildiradi. Shaxsiy munosabatsiz ijro bemaqsad sahnaga chiqilganidan dalolat beradi. Bundan kelib chiqadiki, shaxsiy munosabat estrada aktyorining eng muhim fazilatlaridan biridir ayniqsa bu badihagoʻylikka asoslangan yoʻnalishdagi ijodkor repertuarining fikrga boy boʻlishi mavzuning yumorini topa bilishi uchun qoʻl keladi. Shunday mahorat egasi Avaz Oxundir.

Avaz Oxun ijodiga xos jihatlar repertuar yaratishda zamonaviy ijtimoiy mavzularga eʼtibor qaratish, nutq mahoratida tempo-ritmni his qilish, nutqiy xarakterlar yaratish, ohang, mantiqiy pauzani ushlash kabi ijro priyomlari hamda voqeani badihagoʻylik yordamida soʻzni qiziq topilmaga aylantirishi, fikrlash kabilarda koʻrinadi.

Yakka ijroda nutqning oʻziga xos xususiyati ijodkor tilida namoyon boʻlib, bu asosiy omil hisoblanadi. Ijro tili auditoriyaga yoʻnaltirilgan boʻlib, tomoshabin tarkibidan, qatlamidan kayfiyati va ruhiy holatidan kelib chiqqan boʻladi. Ijro uslubi esa auditoriyani oʻziga tortishga yoʻnaltiriladi. Til yasama boʻlmaydi, ijro uslubini orttirib boʻladi. U ijodkor ruhiyatidan kelib chiqadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi boʻlimi **“Jamoaviy estrada tomoshalari rivojlanishida til va nutqning oʻrni”** deb nomlanadi. Oʻzbek zamonaviy estrada sahnasidagi aktyorlarning jamoaviy chiqishlari avvalo sof dramaturg manba asosida yuzaga keldi. Keyinchalik aktyorlarning oʻzlari yoza boshladilar va ijodiy yondashuvlari asosida badihagoʻylikka tayanilgan tomosha nomerlari soni ortib bordi.

Estrada nomeri - bu individuallik hislatiga tayanilgan boʻlib, nomer shaxs bilan tugʻilib u bilan oʻladi. Shu nuqtai nazardan ssenariy asosida yuzaga kelgan estrada nomerlari asosan jamoaviy chiqishlarda muhim ahamiyatga ega. Sababi jamoaviy chiqishlarda partnyorlar nutqini avvaldan kelishib olishi, tizimga, muayyan ssenariy holiga keltirilishi taqazo qiladi.

²¹ Исломкулов М. Қизикчининг катта мукофоти. / –Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. – Тошкент, 1990-йил, 41-сон. – Б.6.

²² Клитин С.С. Эстрада проблемы, истории и методики. – Ленинград: Искусство, 1987. – С.16

Masalan –Xanda”²³ guruhining o_ziga xos jihatlari hajviy intermediyalar, kichik hajmdagi kulgili miniatyuralar laparlar, aytishuvlar va o_xshatishlarni sahnalashtirilganligida, ijodkorlarning sahnaviy chiqishlarining yozma bayoni - dramaturgik asosini mustahkamlash maqsadida hajvchi yozuvchilar bilan o_zaro hamkorlikni yo_lga qo_yilganligi, guruhda professional xonandalar, komik aktyorlarning hind san‘atiga taqlid nomerlarida ko_zga tashlanadi.

–Ko_zgu” kulgi guruhidagi tomoshalar esa deyarli aktyorlarning o_zlari yozgan ssenariy asosidagi intermediyalar bo_lib tomoshalar tili kundalik so_zlashuvga quriladi. Guruhning o_ziga xos jihatlari musiqa, qo_shiq, raqs, nutqiy xarakterlar orqali tomoshani boyitgan holda estrada unsurlaridan unumli foydalanib jamoaviy ishlashning imkoniyatlarini kengroq ko_rsatib bera oldi. Ularning jonli dasturlari millionlab tomoshabinni qamrab oldi. Ushbu jarayonlar 1989-yillarda avjiga chiqib guruh 1995-yilda ikkiga ajraldi.

Natijada –Obid-A” va –Mirzo” kulgi teatrlari vujudga keldi. –Obid A” teatri miniatyuralarida satira jamiyatdagi muammolarni ko_tarib chiqishga va hal etishga qaratilgan, –Byurokratizm” (2016), –Poraxo_r YPX” (2016) mavzusidagi tanqidiy intermediyalari hamda –Narvon” (2017) guruhi sozanda xonandalarga parodiyasi qiziqarli topilma bo_ldi.

M.Xolmedov o_z atrofiga shogirdlarini yig_adi. Sh.Isroilov, V.Shamshiyev, va sozanda ham xonanda T.Mahkamovni o_z jamoasiga taklif qiladi. Keyinchalik Bjotirxo_ja Imomxo_jayev, Ma‘mur Xolmedov, Anvar Salimovlar. –Mirzo teatri” ijodkorlari parodiya, qo_shiq, musiqa, raqs unsurlaridan o_rnida foydalanib badihago_ylikka asoslangan tomoshalarni yaratdilar.

So_z ustasi qiziqqlar nutq texnikasi ustida shug_ullanish bilan birga o_zbek tilining go_zalligini his qilgan holda unga putur yetkazmay, maqollar, o_zbekona jumlar, luqmalarni ishlatishda tempo-ritm, nutqiy xarakterga e‘tibor berilishi, repertuarni ham puxta bo_lishini ta‘minlaydi.

